

O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA MANZARA JANRINING O‘RNI

UrDPI San’atshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Otaxanova Nodira Jumanazarovna

nodiraotaxanova1@gmail.com

UrDPI Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yonalishi 1- bosqich talabasi

Davletova Dilnura Davlat qizi

dilnuradavletova2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atida manzara janrining ahamiyat va o‘rni, shuningdek o‘zbek rangtasvir rassomlarining ijodi haqida ma’lumotlar berilgan. Manzara janrida kompozitsiya ishlash qonun qoidalari va texnologiyalari ham maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, fon, perspektiva, rang, tus, ufq chizig‘i, estetik go‘zallik, san’at.

O‘zbekistonda manzara janrining eng rivojlangan pallasi 20-asrga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda dastgohli rangtasvir san’atida manzaraning eng go‘zal va betakror namunalari yaratildi. Pavel Benkov, O‘rol Tansiqboyev, N. Karaxan, Rashid Temurov, Rahim Ahmedov, Ne‘mat Qo‘ziboyev va boshqa rassomlar bu yo‘nalishda samarali ijod qildilar va o‘zbek tasviriy san’atida manzara janri rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo‘lib, unda faqat manzara tasvirlanadi. Manzaraning ikkinchi turida manzara biron-ta tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa fonida tabiat yoki shahar, qishloq manzarasi tasvirlanishi mumkin. O‘zbek zamonaviy tasviri san’at rivojiga O‘zbekiston xalq rassomlari Chingiz Ahmarov, Malik Nabiyeu, O‘rol Tansiqboyev, Rahim Ahmedov, Jaloliddin Mirtojiiyev kabilarni ko‘rsatish mumkin. Atoqli rassom va haykaltaroshlar Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Vladimir Burmakin, Ilhom Jabborov , Akmal Ikromjonov, Akmal Nuriddinovning ijodini namunali deb aytishimiz mumkin.

Manzara ishlashda yaqin, o‘rta va olisdagi narsalar asosan uchta ko‘rinishga joylashtiriladi. Yaqin ko‘rinishdagi narsalar aniqroq, olisdagi narsalar ochroq tarzda chiziladi. Bu ko‘rinishlarda to‘g‘ri tasvirlash uchun, avvalo, manzarani sinchiklab kuzatish, uzoqdagi narsalarning yaqindagiga nisbatan kichik ko‘rinishini hisobga olish kerak va havo perspektivasi qoidasiga muvofiq uzoqdagi narsalar rang va tus jihatdan yaqindagilarga nisbatan xiraroq va ochroq ko‘rinadi.

Tabiatning biron-bir qismini tasvirlash uchun datslab ko‘rish nuqtasi va ufq chizig‘i qayerdan o‘tganligi qog‘oz yuzasida aniqlab olinadi. Rasm kompozitsiyasini to‘g‘ri topish uchun chizilayotgan manzarani cheklovchi ramka shaklidagi qurilma karton yoki qogozdan yasalgan maxsus asbobdan foydalanish mumkin.

Kompozitsiyasi topilgandan so'ng yengil chiziqlar bilan chizishga o'tiladi. Bunda yaqin va uzoqdagi narsalarning joylashuvi, o'lchamlari, xarakterli belgilari, nisbatlari va boshqa xususiyatlariga e'tibor beriladi. Bo'yoqda bajarilish vaqtida asosiy diqqat tabiatdagi narsa rangining atrofdagi boshqa narsalar rangiga tasir etishiga, kompozitsiya koloritining yaxlitligiga qaratiladi.

Ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysunish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Tipizatsiya qonuning uchinchi belgisi bu – yangilikdir. Realistik san'at haqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurini jozibali tarannum etadi. Badiiy obrazdagi estetik sifatlar, kompozitsiya yechimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

50-70 yillarda O'zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U. Tansiqboyev "Issiq ko'l", "Ona o'lka", "Qayroqqum suv ombori", N. Qoraxon "Nanay yo'li", "Sijjakda bahor", R. Temurov "Samarqand arxitektura manzaralari" turkimini yaratdilar.

70-80 yillarda O'.Abdurahmonov, F.Tohirov. R.Choriyev, K.Bogaduxov, M.Yesin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi rassomlar, yangi O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud: shahar (arxitektura), qishloq (tog' manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.

Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar hamda yer osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qurilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish holatini aks ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun qalamtasvir, rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi, rangli

etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Biror tabiat manzarasi kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va yerni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan xomaki eskiz variantni rang koloritini aniqlash lozim. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozitsiyani yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy ozuqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Kompozitsiya- bu muallifning ijodiy, badiiy irodasi, mahsuli hisoblanadi.

Shunday ekan, tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otaxanova Nodira Jumanazarovna// Tasviriy san'at darslarida zamonaviy kartina ishlash metodikasini takomillashtirish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi// Vol.14 №4 (2024) 4- to'plam 118-123
2. Jumanazarovna, O. N. (2023). O'zbekiston tasviriy san'atida tarixiy janrda yaratilgan asarlar orqali talabalarning badiiy tasavvurlarini o'stirish. PEDAGOGS jurnali, 33(2), 137-144.
3. Ibadullayeva, N. E., Ibadullayev, S. E., & Otaxanova, N. J. (2022). Tasviriy va amaliy san'at bo'yicha tashkil etiladigan togaraklarda o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga yo'naltirish va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yishning uslubiy jihatlari. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 65-69).
4. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. PEDAGOGS Jurnali, 31(1), 142–148.
5. Abduvoitovich B. D. Tasviriy san'atda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati //so'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – C. 54-58.
6. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari.

O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(18), 187–193.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>

7. Berdiyev Doston Abduvoitovich 2023. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'atni o'qitish muammolari (tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi). *Scientific Impulse*. 1, 9 (May 2023), 520–527.
8. Abduvoitovich, B. D. (2024). Tasviriy san'at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish. *PEDAGOGS*, 51(1), 112-114.